

## BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MONITORING QILISHDA CAMELS REYTING TIZIMI METODOLOGIYASI VA INDIKATORLARI

**F.K.Xolmamatov**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining professori*

*fkholmamatov@gmail.ru*

*ORCID: 0000000341860691*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilishda CAMELS reyting tizimi metodologiyasi va uning asosiy indikatorlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida CAMELS tizimining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari bo‘lgan kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik, likvidlik va bozor risklariga sezgirlik ko‘rsatkichlarining mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur reyting tizimining banklar moliyaviy holatini kompleks baholash, risklarni erta aniqlash va bank nazorati samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari CAMELS tizimining banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilishda ishonchli va samarali baholash vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Maqolada milliy bank amaliyotida CAMELS reyting tizimini qo‘llashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** CAMELS reyting tizimi, banklar moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik, likvidlik, bozor risklari, bank monitoringi, risk-menejment, bank nazorati, moliyaviy tahlil, reyting baholash, bank tizimi barqarorligi.

### KIRISH

Bank tizimi har qanday mamlakat moliya sektorining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash, to‘lov aylanmasining uzluksizligini ta‘minlash hamda investitsiya jarayonlarini rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va uni muntazam monitoring qilib borish mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, moliya bozorlaridagi yuqori o‘zgaruvchanlik, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va tashqi iqtisodiy shoklar sharoitida bank tizimi barqarorligini baholashning samarali mexanizmlarini qo‘llash zarurati ortib bormoqda.

Jahon amaliyotida banklar moliyaviy holatini baholash va nazorat qilishning turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida CAMELS reyting tizimi eng keng tarqalgan va samarali baholash mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim banklarning kapital yetarliligi (Capital Adequacy), aktivlar sifati (Asset Quality), boshqaruv samaradorligi (Management Quality), daromadlilik (Earnings), likvidlik (Liquidity) va bozor risklariga sezgirliigi (Sensitivity to Market Risk) kabi muhim ko‘rsatkichlarini kompleks baholash imkonini beradi. CAMELS tizimi nafaqat bankning joriy moliyaviy holatini baholash, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan aniqlash va barqarorlik darajasini prognoz qilish imkoniyatiga ham ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank-moliya sektorini isloh qilish, banklar faoliyati samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda banklar moliyaviy barqarorligini baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish, xususan, xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan CAMELS reyting tizimidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Banklar moliyaviy barqarorligini baholash va monitoring qilish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda CAMELS reyting tizimi eng samarali baholash vositalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. CAMELS tizimi dastlab AQSH bank nazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, banklarning moliyaviy holati va risklarga chidamliligini kompleks baholash imkonini beradi. U kapital yetarliligi (Capital Adequacy), aktivlar sifati (Asset Quality), boshqaruv samaradorligi (Management Quality), daromadlilik (Earnings), likvidlik (Liquidity) va bozor risklariga sezgirlik (Sensitivity to Market Risk) kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodchi olimlar Richard S. Barr, Lawrence M. Seiford va Thomas F. Siems fikricha, “CAMELS reyting tizimi banklarning moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini beruvchi muhim vosita bo‘lib, u banklarning moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash ehtimolini oldindan aniqlashga xizmat qiladi” [1].

Iqtisodchi olim Frederic S. Mishkin ta’kidlashicha, “bank tizimining barqarorligi iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishining muhim sharti bo‘lib, kapital yetarliligi va risklarni boshqarish darajasi uning asosiy mezonlari hisoblanadi” [2].

Olim Timothy W. Koch fikriga ko‘ra, “banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda aktivlar sifati va likvidlik darajasini muntazam monitoring qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi” [3].

Iqtisodchi olimlar Luc Laeven va Giovanni Majnoni fikricha, “iqtisodiy o‘shish davrida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun yetarli rezervlar yaratadigan banklar iqtisodiy tanazzulning salbiy oqibatlarini minimallashtirishi va kredit taklifini yuqori darajada saqlashi mumkin” [4].

Olimlar George G. Kaufman va Kenneth E. Scott ta’kidlashicha, “bank nazoratining samarali tizimi moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va tizimli risklarni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi” [5].

Iqtisodchi olim Edward I. Altman fikriga ko‘ra, “banklar moliyaviy holatini reyting va indikatorlar tizimi orqali baholash muammoli banklarni erta aniqlash va moliyaviy inqirozlarning oldini olish imkonini beradi” [6].

Iqtisodchi olim O.I. Lavrushin fikricha, “bank tizimi barqarorligi iqtisodiy o‘shishning muhim sharti bo‘lib, u banklarning kapitallashuv darajasi, likvidligi, foydaliligi va risklarni samarali boshqarishi bilan belgilanadi” [7]. Olimlar N.I. Valenseva va I.V. Larionova ta’kidlashicha, “bank tizimi barqarorligini baholashda kapital yetarliligi, aktivlar sifati va likvidlik ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega” [8].

Iqtisodchi olim Sh.Z. Abdullayeva fikricha, “bank tizimining moliyaviy

barqarorligi banklarning kapital yetarliligi, likvidligi, aktivlar sifati va daromadlilik darajasi bilan belgilanadi hamda ushbu ko‘rsatkichlarning barqaror o‘sishi bank tizimining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi” [9].

Mazkur ilmiy yondashuvlar CAMELS reyting tizimining banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilishda muhim analitik vosita ekanligini ko‘rsatadi hamda bank nazorati va risk-menejment amaliyotini takomillashtirishda uning ahamiyatini asoslaydi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilishda CAMELS reyting tizimidan foydalanish imkoniyatlarini baholash maqsadida ilmiy tadqiqotning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida banklar moliyaviy barqarorligini baholash bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliya tashkilotlari hamda bank nazorati organlarining me‘yoriy-uslubiy hujjatlari o‘rganildi. Xususan, CAMELS reyting tizimining tarkibiy elementlari bo‘lgan kapital yetarliligi (Capital Adequacy), aktivlar sifati (Asset Quality), boshqaruv samaradorligi (Management Quality), daromadlilik (Earnings), likvidlik (Liquidity) va bozor risklariga sezgirlik (Sensitivity to Market Risk) ko‘rsatkichlari asosida banklar moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank ma‘lumotlari va xalqaro moliya institutlari statistik ma‘lumotlaridan foydalanildi. Banklar moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetarliligi koeffitsiyenti, muammoli kreditlar ulushi, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), likvidlilikni qoplash me‘yori (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me‘yori (NSFR) kabi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Shuningdek, CAMELS reyting tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida ko‘rsatkichlarning dinamik tahlili, qiyosiy baholash va ekspert baholash usullari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilish jarayonida CAMELS reyting tizimidan foydalanishning afzalliklari va uni milliy bank amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## NATIJALAR

Bank tizimi barqarorligining metodologik asoslari bo‘lib, xalqaro bank amaliyotida Bazal qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va “CAMELS” reyting tizimining talablari hamda mamlakat milliy qonunchiligi tashkil etadi.

Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligining muhim metodologik asoslaridan biri bo‘lib, “CAMELS” reyting tizimidagi talablar va o‘rnatilgan me‘yorlar hamda uni ta‘minlash tamoyillari hisoblanadi.

CAMELS reyting tizimi bu bankning umumiy holatini tasniflash uchun yaratilgan reyting tizimi bo‘lib, birinchi marotaba AQSHda ishlab chiqilgan. U

AQSHdagi har bir bank va kredit tashkilotlariga nisbatan qo‘llanilib, keyinchalik AQSHdan tashqarida ham turli bank nazorati regulyatorlari tomonidan amalga oshirilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Reytinglar moliyaviy hisobotlarning nisbatlar tahlili hamda joyida o‘tkazilgan tekshiruvlar orqali ikkalasi umumiydashgan holda beriladi. AQSHda bu nazorat regulyatori sifatida quyidagi tashkilotlar tasniflanadi: Federal Zaxira tizimi, Valyuta nazorati idorasi, Milliy Kredit Ittifoqi ma‘muriyati, Fermer xo‘jaliklari kreditlari ma‘muriyati va depozitlarni sug‘urtalash federal korporatsiyasi.

Bank barqarorligi holatini baholaydigan ko‘rsatkichlar:

C – kapital yetarliligi (capital adequacy);

A – aktivlar sifati (asset quality);

M – boshqaruv qobiliyati (management capability);

E – daromadlilik (earnings);

L – likvidilik (liquidity – asset and liability management)

S – bozor riskiga ta‘sirchanlik (sensitivity to market risk).

Yuqoridagi barcha ko‘rsatkichlar har biri 1 (eng yaxshi) dan 5 (eng yomon) gacha baholanadi. Reyting tartib-qoidalariga asosan kapital yetarliligi ko‘rsatkichining 5 ta toifasi mavjud:

1. Yaxshi kapitallashtirilgan
2. Yetarli darajada kapitallashtirilgan
3. Kapital kamaytirilgan
4. Juda kam kapitallashtirilgan
5. Kritik kapitallashtirilgan

1-jadval

**“CAMELS” reyting tizimida banklarning kapitalning yetarliligi bo‘yicha reytingi<sup>35</sup>**

Reyting	Birinchi darajali kapitalning yetarlilik darajasi	Jami kapitalning yetarlilik darajasi	Cheklovlar
1 – kuchli	5 foizdan ancha yuqori	10 foizdan sezilarli darajada yuqori	Aktivlarning sifati kamida 2; riskli aktivlar ko‘rsatkichi 11 foizdan yuqori emas.
2 – qoniqarli	5 foizdan sezilarli darajada yuqori	10 foizdan sezilarli darajada yuqori	Aktivlarning sifati 3 ga teng; riskli aktivlar ko‘rsatkichi chegaralanmagan
3 – o‘rtacha	5 % darajasida	10 % darajasida	Aktivlarning sifati 4 ga teng; riskli aktivlar ko‘rsatkichi chegaralanmagan
4 – chegaraviy	5 foizdan sezilsiz darajada past	10 foizdan sezilsiz darajada past	Ssudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasi summasi dastlabki kapital summasidan katta
5 – qoniqarsiz	5 foizdan sezilarli darajada past	10 foizdan sezilarli darajada past	Zararlar summasi dastlabki kapital summasidan katta

Aktivlar sifati bu banklar uchun ortiqcha xavf tug‘diradigan yuqori kredit

<sup>35</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

konstratsiyasi hisoblanadi va unda:

- investitsiya siyosati va amaliyotining maqsadga muvofiqligi;
- kapital va daromad tarkibiga nisbatan investitsion risk omillari;
- investitsiyalarning bozor qiymatining balans qiymatiga ta’siri muhim ahamiyatga ega.

Aktivlar sifati hozirgi va kelajakdagi yomonlashuvi yoki iqtisodiy sharoitlar va tendensiyalar asosida yaxshilanish ehtimoli funksiyasidir. Nazoratchilar aktivlar sifatining reytingini aniqlash uchun banklarning kredit riskini boshqarishni tekshiradilar. Shuningdek, likvidlilik, strategik va muvofiqlik kabi boshqa risklarni ham baholaydilar. Reytingda barcha asosiy aktivlarning sifati va tendensiyalari hisobga olinishi kerak, bunga kreditlar, investitsiyalar va bankning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan boshqa aktivlar kiradi.

CAMELS reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining sifatini baholashda asosiy ko’rsatkich bo’lib, aktivlarning umumiy riskini kapitalga nisbati ko’rsatkichi hisoblanadi.

Mazkur tizimda bank aktivlarining umumiy riski quyidagicha aniqlanadi:

$$AUR = SA \times 0,2 + SHA \times 0,5 + UA \times 1,0$$

Bu yerda:

AUR – aktivlarning umumiy riski;

SA – substandart aktivlar;

SHA – shubhali aktivlar;

UA – umidsiz aktivlar.

Aktivlarning umumiy riskini bank kapitaliga nisbati ko’rsatkichi 5 ballik shkala bo’yicha baholanadi.

## 2-jadval

### Tijorat banki aktivlarining sifatini CAMELS reyting tizimi bo’yicha baholash<sup>36</sup>

Reyting	Ko’rsatkichning darajasi, %
1	5 gacha
2	5 dan 15 gacha
3	15 dan 30 gacha
4	30 dan 50 gacha
5	50 dan yuqori

2-jadval ma’lumotlari ko’rsatadiki, eng yaxshi bank deb hisoblanadigan va 1 reyting baliga ega bo’lgan bankda aktivlarning umumiy riskining darajasi kapitalga nisbatan 5 foizdan oshmaydi. Aksincha, ushbu ko’rsatkichning darajasi eng yomon banklar uchun 50 foizdan yuqori bo’ladi.

Menejment korxonada faoliyatida muhim rol o’ynab, banklarning istiqbolli ko’rsatkichlari va moliyaviy stresslarni to’g’ri baholash va yechim topishda yordam beradigan vosita hisoblanadi. Menajment tekshiruvchilar va nazoratchilarni subyektiv emas, balki obyektiv ko’rsatkichlar bilan ta’minlaydi. Boshqaruvni baholashda

<sup>36</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

tarkibiy qismlarni o‘rtacha reytingi bo‘lmaydi, bu tashkilotning moliyaviy holatiga bog‘liq emas.

Bu tarkibning reytingi direktorlar kengashi va rahbariyatining bank faoliyatidagi risklarni aniqlash, o‘lchash, monitoring va nazorat qilish, uning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash, amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiqligini ta‘minlash qobiliyatini aks ettiradi. Boshqaruv amaliyoti quyidagi risklarning bir qismini yoki barchasini hal qilishi kerak:

- kredit riski;
- foiz stavkasi riski;
- likvidlilik riski;
- tranzaksiya riski;
- muvofiqlik riski;
- strategik risklar.

Bankning strategik rejasi bu tashkilotning keyingi 2-3 yil oralig‘ida rivojlanishini ta‘minlash uchun boshqaruv yo‘nalishini belgilovchi tizimli jarayon hisoblanadi.

Strategik reja bank faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, ko‘pincha kapitalni oshirish, uni ko‘paytirish va bank rahbariyatiga to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Strategik rejalashtirish jarayonini bir qismi sifatida banklar keyingi 2-3 yil uchun biznes rejalar tuzishi va ishlab chiqishi zarur. Direktorlar kengashi esa bu strategik rejaga asosan biznes g‘oyalarni ko‘rib chiqishi va nazorat qilishi zarur. Tekshiruvchilar reja qanday amalga oshayotganini ham baholaydilar, rejalar bankka individual ravishda mos bo‘lishi kerak.

Banklarning doimiy faoliyati uning o‘z aktivlari bo‘yicha tegishli daromad olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bu tashkilotning yanada kengayishini moliyalashtirish, raqobatbardoshligini saqlab qolish, kapitalni to‘ldirish yoki oshirish imkonini beradi.

Bank daromadlarini baholashda e‘tiborga olinadigan asosiy omillar:

- daromad darajasi, uning o‘shish tendensiyalari va barqarorligi;
- baholash uchun ajratmalarning yetarliligi va uning daromadga ta‘siri;
- byudjetlashtirish tizimlari va prognozlash jarayonlarini muvofiqligi;
- turli xil kelajakdagi iqtisodiy risklarga daromadlar istiqboli;
- sof foiz marjasi;
- sof faoliyatdan tashqari daromad va xarajatlar, ularning daromadga ta‘siri;
- aktivlar sifati va tarkibi;
- zarur kapitalni shakllantirish uchun daromadning yetarliligi;
- daromadga ta‘sir qiluvchi ko‘chmas mulklar va asosiy vositalar.

### 3-jadval

#### “CAMELS” reyting tizimida tijorat bankning daromadlilik bo‘yicha reytingi<sup>37</sup>

Reyting	Mezonlar
1 ball	Agar daromad ayni damda o‘shish tendensiyalarini ko‘rsatsa, aktivlar sifati oshsa, yo‘qotishlar kuzatilmasa va kapital shakllantirish uchun yetarli mablag‘ bo‘lsa

<sup>37</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

2 ball	Bank nisbatan barqaror daromadga ega bo‘lsa, daromad darajasi aktivlar sifati va operatsion riskni hisobga olgan holda yaxshi natija bersa
3 ball	Agar joriy va rejalashtirilgan daromad yo‘qotishlarga uchrasa, kapitalni shakllantira olmasa, daromad barqarorligi yo‘qolsa, aktivlar bo‘yicha qoniqarli natija bo‘lsa
4 ball	Baholangan daromad sof daromadning tartibsiz o‘zgarishi, daromadning keskin pasayishi, prognozlar qoniqarsiz natija berishi
5 ball	Doimiy yo‘qotishlar, bankning to‘lovga layoqatsizligi, kapital darajasi odatda 12 oy ichida keskin darajada pasaysa

Likvidlilik bu aktiv va passivlarni boshqarish, baholash va monitoring qilish jarayoni hisoblanadi. Bunda tekshiruvchilar:

- a) Foiz stavkasi riskining sezgirligi va ta’sirini ko‘rib chiqadilar;
- b) Qisqa muddatli, o‘zgaruvchan mablag‘larni muntazam ko‘rib boradilar;
- v) Osonlik bilan naqd pulga aylana oladigan mablag‘larni tekshiradilar;
- g) Foiz stavkalari, tavakkalchilik, pul oqimi va likvidlilikni boshqarib boradilar.

Foiz stavkasi riski bu foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida daromad va kapitalning salbiy o‘zgarishi riski hisoblanib, banklarning investitsion va kredit portfeliga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Likvidlilik riski bu kundalik operatsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan, hozirgi va kelajakdagi pul oqimlariga bo‘lgan ehtiyojni samarali qondira olmaslik riski hisoblanib, u o‘z ichiga ortiqcha mablag‘larni noto‘g‘ri boshqarishni ham o‘z ichiga oladi.

Likvidlilikni boshqarishni baholashda e’tiborga olinadigan muhim omillar:

- balansning tuzilishi;
- kutilmagan hodisalarni qondirish uchun favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish (mablag‘lar manbalari — qarz olish uchun zaxiralarning yetarliligi);
- ortiqcha likvidlilik davrlarini boshqarish uchun favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish;
- pul oqimlari byudjetlari va prognozlari;
- likvidlilikni boshqarishni rejalashtirish va qarorlar qabul qilish bilan integratsiyalashuvi.

#### 4-jadval

### “CAMELS” reyting tizimida tijorat bankning bozor riskiga ta’sirchanligi reytingi<sup>38</sup>

Reyting	Mezonlar
1 – kuchli	Bozor riskiga ta’sirchanlik yaxshi nazorat qilinadi va moliyaviy natija yoki kapitalning yo‘qotishlarga duch kelish ehtimoli juda past. Risk-menejment amaliyoti, risk ta’siridagi pozitsiyalarning miqdori va murakkabligini hisobga olgan holda, takomillashgan hisoblanadi.
2 – qoniqarli	Bozor riskiga ta’sirchanlik yetarli darajada nazorat qilinadi va moliyaviy natija yoki kapitalning yo‘qotishlarga duch kelish ehtimoli unchalik yuqori emas. Risk-menejment amaliyoti, risk ta’siridagi pozitsiyalarning miqdori va murakkabligini hisobga olgan holda, qoniqarli hisoblanadi. Daromad va kapitalning darajasi bozor riskidan munosib himoyalanih imkonini beradi.

<sup>38</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

3 – oʻrtacha	Bozor riskini nazorat qilish takomillashtirishni talab qiladi yoki moliyaviy natija yoki kapitalning yoʻqotishlarga duch kelish ehtimoli yuqori. Risk-menejment amaliyoti, risk taʼsiridagi pozitsiyalarning miqdori va murakkabligini hisobga olgan holda, yaxshilanishi lozim. Daromad va kapitalning darajasi bozor riskidan munosib himoyalaniş imkonini bermaydi.
4 – chegaraviy	Bozor riskini nazorat qilish maqbul emas yoki moliyaviy natija yoki kapital yoʻqotishlarga duchor. Risk-menejment amaliyoti risk taʼsiridagi pozitsiyalarning miqdori va murakkabligiga mos kelmaydi. Daromad va kapitalning darajasi bozor riski hajmini munosib qoʻllab-quvvatlash imkonini bermaydi.
5 – qoniqarsiz	Bozor riskini nazorat qilish maqbul emas va riskning qabul qilingan darajasi bankning moliyaviy barqarorligiga xavf soladi. Risk-menejment amaliyoti risk taʼsiridagi pozitsiyalarning miqdori va murakkabligiga mos kelmaydi.

Bu asosan bozor riskiga, ayniqsa foiz stavkasi riskiga sezgirlikni anglatadi. Bu koʻrsatkich birinchi marotaba 1995-yilda Federal Zaxira tizimi tomonidan foiz stavkalari riski, kredit va depozit foiz stavkalarining nisbatan keskin va kutilmaganda oʻzgarishiga sezgirlikni aniqlash va hal qilish uchun oʻrnatilgan. 1995-yilda Federal Rezerv banklarning fermerlarga kredit berishlari va ularning oʻziga xos mahsulot narxlari oʻzgarishi sababli kreditning qaytarilish qobiliyatining yoʻqolishini kuzatdilar.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, banklar moliyaviy barqarorligini taʼminlash va monitoring qilishda CAMELS reyting tizimi samarali va kompleks baholash vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodologiya banklarning kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik darajasi, likvidligi hamda bozor risklariga sezgirlikni bir vaqtning oʻzida baholash imkonini beradi. Shu jihatdan CAMELS tizimi banklarning joriy moliyaviy holatini aniqlash, potensial risklarni erta bosqichda aniqlash va moliyaviy barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida CAMELS tizimi tarkibiga kiruvchi indikatorlarning har biri bank faoliyatining muayyan jihatlarini baholashga xizmat qilishi aniqlandi. Xususan, kapital yetarliligi bankning xavflarga qarshi moliyaviy barqarorligini, aktivlar sifati kredit risklari darajasini, daromadlilik koʻrsatkichlari esa bank faoliyati samaradorligini ifodalaydi. Shuningdek, likvidlik va bozor risklariga sezgirlik koʻrsatkichlari bankning tashqi iqtisodiy oʻzgarishlarga moslashish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Tahlillar CAMELS reyting tizimi bank nazorati organlari va tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlik monitoringini amalga oshirishda muhim analitik instrument ekanligini koʻrsatdi. Mazkur tizimdan foydalanish banklarning zaif nuqtalarini oʻz vaqtida aniqlash, risklarni samarali boshqarish va boshqaruv qarorlari sifatini oshirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, CAMELS reyting tizimi banklar moliyaviy barqarorligini baholashning ishonchli va xalqaro amaliyotda sinovdan oʻtgan metodologiyasi boʻlib, uni milliy bank amaliyotida keng qoʻllash bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va bank nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilishda

CAMELS reyting tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

kapital yetarliligi va aktivlar sifati ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, muammoli aktivlar ulushi ortib ketishining oldini olish choralarini kuchaytirish zarur;

CAMELS tizimi baholash natijalarini stress-test natijalari bilan uyg‘unlashtirish, bu banklarning turli iqtisodiy shoklarga chidamliligini yanada aniq baholash imkonini beradi;

raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt asosida CAMELS indikatorlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish tizimini joriy etish, monitoring jarayonining tezkorligi va aniqligini oshiradi.

Boshqaruv sifati (Management Quality) ko‘rsatkichini baholash mezonlarini takomillashtirish, korporativ boshqaruv, ichki nazorat va risk-menejment samaradorligini hisobga oluvchi qo‘shimcha indikatorlarni kiritish maqsadga muvofiq;

CAMELS reyting natijalari asosida banklarni segmentlarga ajratish va differensial nazorat mexanizmlarini qo‘llash, nazorat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi banklar moliyaviy barqarorligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish, risklarni o‘z vaqtida aniqlash va bank tizimining umumiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barr R.S., Seiford L.M., Siems T.F. Forecasting Bank Failure: A Non-Parametric Frontier Estimation Approach // *Recherches Économiques de Louvain*. – 1994. – Vol. 60, No. 4. – P. 417–429.
2. Frederic S. Mishkin. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 12th Edition. – Boston: Pearson Education, 2019. – 720 p.
3. Timothy W. Koch, MacDonald S.S. *Bank Management*. 8th Edition. – Boston: Cengage Learning, 2014. – 864 p.
4. Luc Laeven, Giovanni Majnoni. Loan Loss Provisioning and Economic Slowdowns: Too Much, Too Late? // *Journal of Financial Intermediation*. – 2003. – Vol. 12, No. 2. – P. 178–197.
5. George G. Kaufman, Kenneth E. Scott. What Is Systemic Risk, and Do Bank Regulators Retard or Contribute to It? // *The Independent Review*. – 2003. – Vol. 7, No. 3. – P. 371–391.
6. Edward I. Altman. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // *The Journal of Finance*. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609.
7. Лаврушин О.И. (под ред.). Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики. – Москва: КНОРУС, 2014. – 280 с.
8. Лаврушин О.И., Валенцева Н.И., Ларионова И.В. и др. Банковская система в современной экономике. – Москва: КНОРУС, 2016. – 354 с.
9. Абдуллаева Ш.З. Банк иши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 620 б.